



بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

*Mehribon va Rahimli Allohning nomi  
bilan boshlayman*



**KELING,**  
**QUR'ONNI**  
**YODLAYMIZ!**

*Qur'onni yodlashda*  
*OLTIN QOIDALAR*  
*bilan tanishamiz!*

*Bu ko'rsatmalar insha Allah*  
*menga va sizga turtki bo'ladi:*

- ✓ *Qur'onni Karimni yodlashga;*
- ✓ *Uni tushunishga ;*
- ✓ *Bu Sharafli Qur'on ila yashashga.*



**Qur'oni Karimda  
114 ta sura bor.**

***Siz nechta surani  
yoddan bilasiz?***



*Qur'onni yodlash va hofiz  
bo'lishning*  
**fazilat va foydalari**

**Bu dunyoda hurmat va e'tibor – namozda imom bo'lishdek sharaf Qur'on hofizlariga berilgan.**

**(Manba: Sahih Muslim)**

**Oxiratdagi Oliy maqom.**

**(Manba: Termiziy va Abu Dovud)**

**E'zozlangan farishtalar bilan birga bo'lish baxti.**

**(Manba: Buxoriy va Muslim)**

**Qiyomat kuni Hofizga sharaf toji beriladi va sharaf ridosi kiydiriladi.**

**(Manba: Termiziy)**

**Qur'on hofizni shafolat qiladi.**

**(Manba: Muslim va Buxoriy)**

**Qur'on hofizining ota-onasiga Qiyomat kun toj kiydiriladi.**

**(Manba: Tabaroniy va Hokim)**

# Sevimli Payg'ambarimiz

صَلَّى اللهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ

Shunday go'zal duo qilardilar:

اللَّهُمَّ اجْعَلِ الْقُرْآنَ رَيْعَ قَلْبِي

“Allohim! Qur'onni qalbimning bahori qilgin”.

“Haqiqatan, agar Qur’on qalbimizning bahori bo‘lsa:

\* Bizning yuragimiz har doim tabiatning yangilanishi va saranjomligi bilan gullab yashnar edi;

\* Yashil ko‘zlarimizni quvonchga to‘ldiradi;

\* Muattarliklar hid-bo‘yimizni xushbo‘ylashtiradi;

\* Mevalar ta‘m bilish sezgimizga lazzat baxsh etadi, tanamizga ozuqa bo‘ladi va

\* Gullar hayotning tortiq va nazokatini bizga eslatib turadi”.

(Hamza Yusuf o‘zining bir maqolasida yozgan)



**Shunday qilib, quyidagi duo  
bilan boshlaymiz:**

**اللَّهُمَّ اجْعَلِ الْقُرْآنَ رَيْعَ قُلُوبِنَا**

**Allohim! Qur'onni  
qalblarimizning bahori qilgin.**

**Omiyn!**

**1. Niyatingizni sof va chin dildan (samimiy) qiling.**

**U faqat Allohning roziligini izlash bo'lishi va bundan boshqa bo'lmasligi lozim!**

**Siz obro'ga, mashhur bo'lishga yoki pulga rag'bat qilmasligingiz lozim.**

**ESLATMA: Hadisga ko'ra, jahannamning OLOVIGA YOQILg'I bo'ladigan uch kishining biri yomon niyatli islomiy olimlardir!**

**Bu eng muhimidir!**

**2. Niyatingizni sof qilgandan so'ng,  
Allohga duo qiling. Allohning  
yordamisiz hech narsa qilolmaysiz!**

**Duoning kuchiga ISHONING.**

**Alloh qalblarimizdagi sirlarni biladi. Agar  
siz chin dildan Allohning yordamiga  
intilsangiz, U yo'llarni ochishi va ishlarni  
siz uchun oson qilishi muqarrar.**

**Buning dalili Allohning va'dasidir va U  
Undan so'raganlarni noumid  
qoldirmaydi!**

**3. Yaxshi Mus'haf – Qur'onning yaxshi nusxasiga ega bo'ling.**

**Arabiy yozuv ravshan bo'lishi kerak va sizga uni o'qish qulay bo'lishi kerak.**

**4. Tugatguncha bu Mus'hafni o'zgartirmaslikni ta'minlang. Ayniqsa, yodlashga qaror qilgan vaqtingizda Mus'hafni almashtirish yomon fikr!**

## **5. Qiroat va tajvid qoidalarini bilmay yodlashni BOSHLAMANG.**


**(Eslatma: Bu yodlashga oson, lekin unutishga qiyin. Agar siz biron oyatni yodlab va keyinchalik uning noto‘g‘ri tajvid bilan yodlab olganingizni anglab yetsangiz endi sizga to‘g‘risini yodlab olish qiyin kechadi).**

**SIZ QIROATINGIZNI NAZORAT QILISH  
UCHUN Qur'on qiroatida mohir bo'lgan  
ilimli kishiga muhtoj bo'lasiz.**

**HATTO siz ovozli/internet orqali  
yodlashni istaganingizda ham  
qiroatingizni tekshirish va tekshirtirib  
olishingiz kerak bo'ladi. Bu juda muhim!**

**6. Allohning Kalomi Qur'onni yodlashga tahorat va mukammal poklik bilan borishingiz zarur.**

**Sizning Qur'onga nisbatan MUNOSABATINGIZ boshqa kitoblardan foydalanishdagi munosabatingizdan tamomila farqli bo'lishi shart!**



**7. Yaxshi joy tanlash** xotira uchun o‘z o‘rniga ega. Shunday bir qulay joy tanlangki, butun e’tibor va diqqatingizni (Qur’on) yodlashga jam qila oling.



## **8. Alohida vaqt ajrating.**

**Siz uchun eng qulay vaqtni tanlang. Buning uchun zehn toza va o'tkir bo'lgan erta tongi vaqt yaxshiroqdir. Bundan tashqari, fajr vaqtida Qur'on o'qishga farishtalar guvoh bo'ladi!**

**Yodlash vaqti davomida boshqa hech bir ish qilmang.**

**Kundalik belgilangan vaqtingizda qat'iy va samimiy bo'ling! Bu tez yodlashning sirlaridan biridir.**

## **9. Kundalik yodlaydigan oyatlar sonini taqsimlab oling.**

**Siz kundalik yodlay oladigan oyatlar miqdorini, ma'lum oyatlari soni, bir yoki ikki bet yoki chorak poracha miqdorini o'zingiz qodir bo'lguncha aniq belgilab oling.**

**Aniq belgilab olgach, shu maqsadga yetish uchun bor imkoniyatingiz bilan harakat qiling.**

**Ba'zi bir asosli sabablarga ko'ra kunlik maqsadingizga erisha olmasangiz xafa bo'lmang. Uning o'rniga keyingi kun vazifasi bilan birga qoldirilganini ham yodlashga harakat qiling.**

## **10. Ovoz chiqarib qiroat qiling.**

**Siz ovoz chiqarib qiroat qilishingiz kerak, bunda **birinchidan**, nabaviy sunnatga ergashasiz **va ikkinchidan**, yodlashingizda takomillashuv bo‘ladi. Qur’onni ohang bilan o‘qish uni eshitishni jozibali qiladi va til bir ohangga o‘rganganligi uchun yodlash ham osonlashadi. Shuningdek, xatolar ham doimgi ohangdan boshqacharoq bo‘lib qolganligi uchun osongina anglanib olinsa bo‘ladi. Qachon shunday bo‘lsa, til farqni sezadi va to‘g‘ri qiroat uchun to‘xtab qoladi.**

**11. Bitta qismni mukammal qilmaguncha keyingisiga o'tmang.**

**Siz bir qismni mukammal qilmaguningizcha keyingisiga o'tmasligingiz kerak.**

Vazifangizni takomillashtirishning bir yo'li – kundalik namozlaringizda uni o'qishni odat qiling.

**Bu yo'l Qur'onni yodlashda har kim uchun to'g'ri keladi va oson bo'ladi. Oson, hattoki, ish bilan band bo'lganlar uchun ham.**

## **12. Boshlanishini (avvalgisining) oxiriga bog'lang.**

**Siz suralarning boshini ularning oxiriga ulashingiz kerak va tilingiz miyangizga zo'r bermasdan ravon va osongina qiroat qilmog'i kerak.**

**Afzali, siz yodlashingizda suvdek ravon bo'lishi va nima bo'lsa ham uni o'qishda hech bir ikkilanish bo'lmasligi kerak. Bu xuddi "Fotiha" surasini hech bir zo'riqishsiz yoddan o'qishdek bo'lishi kerak. Chunki "Fotiha" tez-tez takrorlanib o'qilib turadi.**

**Maqsad butun surani miyangizda mahkamlab olish va bittasini mukammal yodlamaguningizcha boshqasiga o'tmaslik.**

## **13. O'xshashliklarga e'tibor qarating.**

**Qur'onda 6236 oyat bor, 2000 ta atrofida bir-biriga o'xshash. Ba'zi joylarda o'xshashliklar aynan bir xil bo'lsa, ba'zi joylarda esa bir harf yoki ozgina so'zlar farq qilishi mumkin.**

**O‘xshashlarga ikki misol:**

**Avvalo so‘zlarning boshlanishi “Fo” va “vov” bilan boshlanganiga juda ehtiyotkorlik bilan e’tibor qilish lozim. Ketma-ket kelgan ikkita oyatning farqiga e’tibor bering:**

سورة الضحى

فَأَمَّا الْيَتِيمَ فَلَا تَقْهَرْ  
وَأَمَّا السَّائِلَ فَلَا تَنْهَرْ

**سورة الكهف da kelgan uchta turli oyatlarda so‘zlarning sistematik qo‘shimchalariga e’tibor bering:**

قَالَ إِنَّكَ لَنْ تَسْتَطِيعَ مَعِيَ صَبْرًا  
قَالَ أَلَمْ أَقُلْ إِنَّكَ لَنْ تَسْتَطِيعَ مَعِيَ صَبْرًا  
قَالَ أَلَمْ أَقُلْ لَكَ إِنَّكَ لَنْ تَسْتَطِيعَ مَعِيَ صَبْرًا



**Shuning uchun, Qur'onni yodlayotgan har kishi o'xshash oyatlarga **katta e'tibor** qaratishi lozim.**

**Bu o'xshashliklarga har qancha ko'p e'tibor qaratilsa, xotirada shuncha mustahkam o'rnashib qoladi.**



## 14. Tez-tez takrorlab turmoq.

**Qur'onni yodlagandan keyin, agar siz uni takrorlamasangiz va qarovsiz qoldirsangiz, u sizdan qochib ketadi va siz uni tezda unutasiz. Demak, takrorlashga amal qilish va matonat ila qayta ko'rib chiqishga davomli bo'lish va xotirada bekamu-kust saqlab qolish kerak. Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam dedilar: "Qalbida Qur'ondan bilgan kimsaning misoli xuddi bog'langan tuyalarning sohibi kabidir. Agar ularni bog'lovliq saqlasa, u ularni nazorat qiladi, ammo agar qo'yib yuborsa, ular qochib ketadi".**

**Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam dedilar: "Qur'on qiroatini esda saqlanglar, chunki, jonim qo'lida bo'lgan zotga qasamki, Qur'on jilovi yechilgan tuyalardan ko'ra tezroq yuguradi (unitiladi)" (Buxoriy va Muslim rivoyat qilgan).**

**Bundan anglashiladiki, biror kishi Qur'onni to'liq yod olsa, har kun eng kamida bir pora o'qishi kerak.**

## 15. Nima yodlayotganingizni tushuning.

**Qur'on yodlashdagi katta ko'makchilardan biri oyatlarni tushunmoq va ular orasidagi bog'liqlikni bilib olmoq.**

**OGOHLANTIRISH:** Ammo siz yodlash davomida juda ko'p tushunishga e'tibor qilishingiz **kerak emas**. Kimdir (faqat) tushunishgagina qaram bo'lib qolsa, unitishi oson bo'lib qoladi va xayolini jamlay olmay to'xtab qoladi. Bu ko'pincha uzoq qiroatlarda yuz beradi.

**16. Amalga tadbiq qilishda bor kuchingizni ishga soling.**


**Qur'ondan o'rgangan va yodlaganlaringizni hayotingizda ham amalga kiriting.**

**Qur'on har bir aql egasi uchun yo'lboshchidir.**

**Qur'onning asl maqsadi faqat har kimki uning ta'limotlariga e'tiqod ila amal qilsa yuzaga keladi.**

## Xulosa:

- ✓ 1. Niyatni sof qilmoq.
- ✓ 2. Chin dildan duo qilmoq.
- ✓ 3. Aniq yozuvli Mus'hafga ega bo'lmoq.
- ✓ 4. Tugaguncha o'sha Mus'hafdan foydalanmoq.
- ✓ 5. Tajvid va maxraj qoidalarini bilmoq.
- ✓ 6. Tahoratli bo'lmoq.
- ✓ 7. Yaxshi joy tanlamoq.
- ✓ 8. Kundalik belgilangan vaqt ajratmoq.

- 
- ✓ **9. Kundalik miqdorni tayin qilmoq.**
  - ✓ **10. Ovoz chiqarib o'qimoq.**
  - ✓ **11. Mukammallashtirmaguningizcha boshqasiga o'tmang.**
  - ✓ **12. Boshlanishini oxiriga ulamoq.**
  - ✓ **13. o'xshashliklarga e'tibor qiling.**
  - ✓ **14. Unutib qo'ymaslik uchun takrorlab turing.**
  - ✓ **15. Tushunmoq.**
  - ✓ **16. Qur'onga amal qilmoq.**



**Allohim Uning Kitobini  
oʻrganishimizga qalblarimizni  
lutfan hidoyat etsin.**

**Omiyn.**

**MUQIZ MUJTABA ALI**  
**tomonidan taqdim etilgan.**

**For Qur'an resources, visit:**

**<http://yassarnalquran.wordpress.com/>**

**For Hadith/Seerah resources, visit:**

**<http://islamcalling.wordpress.com/>**

*Ingliz tilidan G'iyosiddin Yusuf tarjimasi*